AKROBATIK MASHQLARNI O‘RGATISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Kamalov Abduxalil Faxriddin o‘g‘li - Namangan viloyati Uychi tumani 10-umumiy o‘rta ta’lim maktabi Jismoniy tarbiya fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Umumta’lim maktablarida jismoniy tarbiya fanidan o‘quvchilarga harakatlarni bajarishga, o‘rganishga yordam beradigan, ularni o‘rganishdagi amaliy va interfaol metodlar haqida fikrlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Akrobatika, interfaol metodlar, SWOT-tahlil, muammoli vaziyat metodi, tushunchalar tahlili metodi, Rezyume metodi, assessment metodi, ven diagrammasi metodi.

Interfaol metod – ta‘lim jarayonida o‘quvchilar hamda o‘qituvchi o‘rtasidagi faollikni oshirish orqali o‘quvchilarning bilimlarni o‘zlashtirishini faollashtirish,

shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Interfaol metodlarni qo‘llash dars samaradorligini oshirishga yordam beradi. Interfaol ta‘limning yutuqlari shundan iboratki, o‘quvchilar tashabbus ko‘rsatishlariga imkoniyatlar yaratilishi, kichik guruh, katta guruh, sinf jamoasi bo‘lib ishlash uchun mashqlar berish, turli harakatlar bajarish va boshqa metodlardan iborat bo‘lib, ular ta‘lim-tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirishda o‘ziga xos ahamiyatga ega.

“SWOT- tahlil” metodi

Metodning maqsadi: Mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

Akrobatik mashqlarni bajarishda egiluvchanlik sifatlarining SWOT tahlilini ushbu jadvalga tushiring.



S	Akrobatik mashqlarni bajarishda egiluvchanlikni rivojlantirishning kuchli tomonlari	Open source(ochiq kodli), foydalanuvchilar sonining ko‘pligi…..
W	Akrobatik mashqlarni bajarishda egiluvchanlikni rivojlantirishning kuchsiz tomonlari	Operation tizimning virtual mashina orqali ishlashi…..
O	Akrobatik mashqlarni bajarishda egiluvchanlikni rivojlantirishning imkoniyatlari(ichki	Beautiful UI (chiroyli interfeys), Connectivity (barcha mobil aloqa texnologiyalari va Internet bilan bog‘lanish)….
T	To‘siqlar(tashqi)	Ma’lumotlar xavfsizligining to‘laqonli ta’minlanmaganligi…..


“Assesment” metodi.

Metodning maqsadi: mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan. Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarning bilish faoliyati turli yo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashxis qilinadi va baholanadi. Metodni amalga oshirish tartibi: “Assesment”lardan jismoniy tarbiya darslarida nazariy bilimlarni o‘rgatishda, tinglovchilarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

“Ven Diagrammasi” metodi

Venn Diagrammasi (ingliz faylasufi Djon Venna nomi bilan atalgan). **Metodning maqsadi:** Bu metod grafik tasvir orqali o‘qitishni tashkil etish shakli bo‘lib, u ikkita yoki uchta o‘zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko‘rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi. Metodni amalga oshirish tartibi: • ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko‘rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o‘ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi; • navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to‘rt kishidan iborat kichik guruhlarga birlashtiriladi va har bir juftlik o‘z tahlili bilan guruh a’zolarini tanishtiradilar; • juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko‘rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

Namuna: Ilmiy tadqiqot turlari



XULOSA

Interfaol ta'lim texnologiyalari va uning muhim tarkiiy elmenti bo‘lgan interfaol metodlar ta'lim jarayonini tashkil etish ko‘rsatkichlarining o‘zgarishini ta'minlaydi. Zero, zamonaviy ta'lim doimiy ravishda fan va texnologiya rivoji bilan bog‘liqlikda ta'lim maqsadi, mazmuni, shakl, metod va vositalarining yangilanib borishini talab qiladi. Shunday ekan har bir pedagog doimo zamon bilan hamnafas holatda dars mashg‘ulotlarini olib borishi kerak. An’anaviy darslar, noan’anaviy usullar bilan qo‘llash o‘quvchilarga yangilik va shu bilan birga o‘quvchilarda darsga bo‘lgan qiziqishini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov M. Didaktik o‘yinlarning ta’limiy ahamiyati// Xalq ta’limi tizimida boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining yangi avlodini tayyorlash muammolari. T-1996.176-bet.

2. Ашмарин Б.А. Теория и методика педагогических ис- следований в физическом воспитании: пособие для студентов, аспирантов и преподавателей ин-тов физкультурн. - М.: Физ- культура и спорт. 1998.

4.Azizxo‘jaeva N.Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: «O‘qituvchi», 2003. – 23 – 48 bet.

4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Ta’limda innovatsion texnologiyalar/ Amaliy tavsiyalar.–T.: “Iste’dod” jamg‘armasi, 2008y 180 b.

5. Qurbonov. Sh.Q. Oliy ta`lim muassasalarida gimnastika va uni o`qitish metodikasi (mustaqil ta’limni tashkil etish bo`yicha metodik tavsiya). Buxoro, 2020-yil. 64-b.

6. Alisher o‘g‘li A. A. et al. BOLALAR JISMONIY TARBIYASIDA QO‘LLANILADIGAN METODLARNING NAZARIY ASOSLARI //Miasto Przyszłości. – 2024. – T. 44. – C. 584-586.